



ISSUES OF THE HISTORY OF UZBEKISTAN IN THE FRENCH PERIODICAL PRESS

Durdona Bakhronovna Rasulova

Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor

Samarkand State Pedagogical Institute

E-mail: durdonarasulova0999@gmail.com

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: France, Central Asia, periodical press, research, history of material culture, conservation, restoration, cultural heritage continuity.

Received: 25.06.26

Accepted: 26.06.26

Published: 27.06.26

Abstract: This article examines the source value of periodical publications, with particular emphasis on the role of the French-language periodical press as an important primary source for the historiography and source studies of Uzbekistan. The study provides an in-depth analysis of the informational and scholarly potential of French periodicals in covering various aspects of Uzbekistan's material culture and historical heritage. Furthermore, the article highlights the place and significance of Uzbekistan's cultural heritage in world civilization and reveals how large-scale activities aimed at its preservation, conservation, restoration, and promotion have been reflected in French periodical publications.

FRANSUZ TILIDAGI DAVRIY MATBUOTDA O'ZBEKISTON TARIXI MASALALARI

Durdona Baxronovna Rasulova

Samarqand davlat pedagogika instituti,

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E-mail: durdonarasulova0999@gmail.com

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Fransiya, Markaziy Osiyo, davriy matbuot, tadqiqotlar, moddiy madaniyat tarixi, konservatsiya, restavratsiya va madaniy meros vorisiyligi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada davriy matbuotning manbaviy ahamiyati keng yoritilgan bo'lib, xususan fransuz davriy matbuotining O'zbekiston tarixshunosligi va

manbashunosligi bo'yicha birlamchi manba ekanligi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston madaniy merosining dunyoda tutgan o'rni va ahamiyati hamda uni saqlash bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamlı ishlarning fransuz davriy nashrlarida yoritilishi ochib berilgan.

ВОПРОСЫ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА ВО ФРАНЦУЗСКОЙ ПЕРИОДИЧЕСКОЙ ПЕЧАТИ

Дурдона Бахроновна Расулова

Доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент

Самаркандский государственный педагогический институт

E-mail: durdonarasulova0999@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Франция, Центральная Азия, периодическая печать, исследования, история материальной культуры, консервация, реставрация, преемственность культурного наследия.

Аннотация: В данной статье широко освещается источниковедческое значение периодической печати, в частности проводится углублённый анализ франкоязычной периодической прессы как важного первичного источника по историографии и источниковедению Узбекистана. Особое внимание уделяется исследованию информационного и научного потенциала французских периодических изданий в освещении различных аспектов материальной культуры и исторического наследия Узбекистана. Кроме того, в статье раскрываются место и значение культурного наследия Узбекистана в мировой цивилизации, а также отражение во французской периодической печати масштабных мероприятий, направленных на его сохранение, консервацию, реставрацию и популяризацию.

Kirish. Hozirgi global ilmiy makonda Sharq mamlakatlari tarixi, madaniyati va sivilizatsiyasini o'rganishga ixtisoslashgan minglab sharqshunoslik markazlari faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Amerika Qo'shma Shtatlarida shakllangan ilmiy muassasalar Sharqshunoslikning nazariy-metodologik asoslarini rivojlantirish, yangi manbalarni ilmiy muomalaga kiritish hamda mintaqaviy tadqiqotlarni muvofiqlashtirishda muhim o'rin egallab kelmoqda. Shu nuqtai nazardan mazkur ilmiy markazlarning institutsional

rivojlanishi, tadqiqot yo‘nalishlari va bilim ishlab chiqarish mexanizmlarini o‘rganish fan tarixi va tarixshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy muassasalar faoliyatini tadqiq etishda ularning davriy nashrlari - ilmiy jurnallar, byulletenlar, yilnomalar, akademik hisobotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, ilmiy maktabning nazariy qarashlari, tadqiqotdagi ustuvor xususiyatlar, manbalar bazasi va metodologik yondashuvlarini aks ettiruvchi davriy matbuot nafaqat ilmiy axborotni tarqatish vositasi, balki muayyan fan sohasida bilimlarni ishlab chiqarish, legitimatsiya qilish va akademik muhitda tarqatishning asosiy institutsional mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini o‘rganishda fransuz ilmiy nashrlari muhim o‘rin tutadi. Frankofon muhitda faoliyat yuritib kelayotgan ko‘plab ilmiy jamiyatlar, akademiyalar va tadqiqot markazlari o‘z atrofida maxsus jurnallar va akademik nashrlar tizimini shakllantirgan. Ushbu nashrlar orqali Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston moddiy madaniyati tarixi, arxeologiyasi, san‘ati, epigrafikasi, shaharsozligi, muzeyshunosligi va madaniy merosiga oid tadqiqotlar muntazam ravishda e‘lon qilinib kelinmoqda. Shuning uchun fransuz davriy matbuoti nafaqat O‘zbekiston tarixi bo‘yicha qo‘shimcha ma‘lumot manbai, balki fransuz markaziyosiyoshunosligida shakllangan ilmiy qarashlar, konsepsiyalar va tadqiqot paradigmlarini aks ettiruvchi muhim tarixshunoslik manbasi sifatida ham ahamiyatga ega. Mazkur jihatlarni hisobga olgan holda, quyida Fransiyada nashr etiladigan va O‘zbekiston hamda Markaziy Osiyo moddiy madaniyati tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutgan asosiy ilmiy jurnallar va davriy nashrlarning faoliyati tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tarix fanining zamonaviy metodologik tamoyillari hamda tarixshunoslik, manbashunoslik va madaniy meros tadqiqotlarida qo‘llaniladigan ilmiy usullarga tayanildi. Xususan, fransuz tilidagi davriy matbuot materiallarini o‘rganishda kontent-tahlil usuli orqali maqolalarning mavzuiy tarkibi, tadqiqot ustuvorliklari va ilmiy yo‘nalishlari aniqlandi. Diskurs-tahlil yordamida fransuz markaziyosiyoshunosligida O‘zbekiston moddiy madaniyatining qanday konseptual yondashuvlar asosida talqin qilinganligi o‘rganildi. Germenevtik yondashuv asosida esa matnlarda aks etgan tarixiy voqelik, ilmiy qarashlar va madaniy tasavvurlarning mazmun-mohiyati tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida o‘rganilgan qadimiy matnlar, devoriy yozuvlar hamda buyumlarda keltirilgan yozuv va tasvirlarni sharhlashda ikonografik tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotda muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Researches Gorizont” yondashuvidan ham foydalanildi. Mazkur yondashuv doirasida alohida olim, jurnal yoki ilmiy muassasa faoliyatini vertikal tahlil qilish bilan cheklanilmasdan, ularning o‘zaro bog‘liqligi, ilmiy maktablar, nashr organlari, metodologik paradigmlar va bilim ishlab chiqarish zanjiri gorizontol kesimda ham

o'rganildi. Bu esa fransuz markaziyosiyoshunosligida O'zbekiston moddiy madaniyati haqidagi bilimlarning shakllanishi, tarqalishi va institutsionallashtirish jarayonlarini kompleks tarzda yoritish imkonini berdi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston moddiy madaniyati tarixi va uning fransuz tilidagi ilmiy nashrlarda yoritilishi masalasi xorijiy tarixshunoslikda turli darajada o'rganilgan bo'lsa-da, mazkur mavzuning aynan fransuz davriy matbuoti misolida kompleks tarixshunoslik tahlili ob'ekti sifatida maxsus tadqiqot doirasiga tortilmagan. Mavjud adabiyotlarni xorijiy va milliy nashrlar misolida o'rganish mumkin.

Markaziy Osiyo va O'zbekiston moddiy madaniyati tarixini arxeologik va tarixiy nuqtai nazardan tadqiq qilgan xorijiy olimlar – Richard N. Frye tadqiqotlarida Mintaqaning sivilizatsion rivojlanishi, So'g'd va Baqtriyaning tarixiy-madaniy ahamiyati keng yoritilgan bo'lib, Yevroosiyo madaniy aloqalarining muhim markazlaridan biri sifatida baholanadi. Simone Mantellini ishlarida Buxoro vohasi tarixi, shaharlar evolyusiyasi va madaniy landshaftlarning shakllanishi tahlil qilingan. Boris Marshak esa So'g'd sivilizatsiyasi, Panjikent va Afrosiyob moddiy madaniyati bo'yicha fundamental tadqiqotlari bilan tanilgan.

Ikkinchi guruhga Markaziy Osiyoning qadimgi va o'rta asr shahar madaniyatini o'rgangan Frantz Grenet, Pierre Leriche, Claude Rapin, Henri-Paul Francfort, Julio Bendezu-Sarmiento kabi tadqiqotchilarning ishlari alohida ahamiyatga ega. Ular tomonidan Baqtriya, So'g'd, Afrosiyob, Jarqo'ton, Qoratepa va boshqa yodgorliklar tarixi, shaharsozlik jarayonlari, madaniy transfer va sivilizatsiyalar o'rtasidagi aloqalar tahlil qilingan.

Uchinchi guruhga fransuz ilmiy muhitida shakllangan bibliografik va tarixshunoslik tahlillar kiradi. Bu yerda ayniqsa Abstracta Iranica jurnali muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nashr mustaqil tadqiqotlardan ko'ra, Markaziy Osiyo, Eron va fors tilli makonga oid yangi kitoblar, maqolalar, kataloglar va dissertatsiyalarning ilmiy sharhlarini e'lon qilib boradi. Shu jihatdan Abstracta Iranica fransuz markaziyosiyoshunosligining o'ziga xos bibliografik monitoring markazi vazifasini bajaradi. Mazkur jurnal sahifalarida Markaziy Osiyo moddiy madaniyatiga oid tadqiqotlarni tahlil qilgan fransuz olimlari qatorida Rémy Boucharlat, Étienne de La Vaissière, Frantz Grene va boshqa mutaxassislar muhim o'rin tutadi. Rémy Boucharlat asosan Eron va Markaziy Osiyo arxeologiyasi, Ahamoniylar davri madaniyati va arxeologik tadqiqotlarga bag'ishlangan ishlarga taqriz yozgan bo'lsa, Étienne de La Vaissière So'g'd sivilizatsiyasi, savdo tarmoqlari va Ipak yo'li tarixi bo'yicha nashrlarni tahlil qilgan. Frantz Grene esa Markaziy Osiyo arxeologiyasi, dinlar tarixi va So'g'd madaniyatiga oid ilmiy adabiyotlarni baholash orqali fransuz markaziyosiyoshunosligidagi asosiy ilmiy tendensiyalarni shakllantirishda ishtirok etgan.

Shu bilan birga, fransuz tarixshunosligida Journal Asiatique, CRAI, Studia Iranica, Arts Asiatiques va Cahiers d'Asie Centrale kabi nashrlar doirasida O'zbekiston moddiy madaniyatining alohida jihatlarini tadqiq qilingan. Mazkur jurnallar sahifalarida e'lon qilingan materiallar O'zbekiston moddiy madaniyati haqidagi bilimlarning shakllanishi va evolyusiyasini o'rganishda alohida ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. XIX-asr o'rtalarida Parij ommaviy axborot vositalari Rossiyaning Turkistondagi siyosatiga oid voqealarni yoritib bordi. 1848-1859 yillarda "Republique", "Patrie", "Moniteur", "Globe Revue de l'Orient" kabi gazetalarda Rossiyaning O'rta Osiyoga kirib borishi, geografik xarakterdagi annotatsiyalar (Kaspiy va Orol dengizi, Balxash ko'li, Ili vohasi haqida), etnografik materiallar kabi ma'lumotlar beruvchi maqolalar nashr etila boshlandi.

XIX-asrning o'rtalarida Sharqni ilmiy o'rganish asoslari yaratildi, juda ko'p faktik material yig'ilib, kun tartibiga bilimlarni sistemalashtirish va konseptual umumlashtirish vazifalari qo'yilgan edi.

Yevropa orientalistikasi tarixining eng yorqin davrlaridan biri XIX-asrning ikkinchi yarmi va XX-asrning dastlabki o'n yilliklarini qamrab oladi. Bu bosqichga xos xususiyatlar: tadqiqotlar sohasining kengayishi va intensivlashuvi, o'rganilayotgan ob'ektlarning son jihatdan oshishi, olingan ma'lumotlarni sistemalashtirish, ilmiy g'oyalarning konseptual rasmiylashtirilishi, sohalarning ilmiy ixtisoslashuvi va tadqiqot natijalari hamda g'oyalarni ochiq almashish uchun Yevropada ilmiy uyushmalar vujudga keldi. Yevropa sharqshunoslik tizimida yetakchilik o'rinlaridan birini shubhasiz, fransuz orientalistlarining bir necha avlodi egallab keldi.

Bu davrda ham sinologiya yuqori darajadagi temp bilan rivojlandi. Sinologiyadagi muvaffaqiyatlar va Markaziy Osiyo tarixini o'rganish XIX - XX asrlarda Edvard Shavann nomi bilan bog'liq. Shuningdek, islomshunoslik tadqiqotlari ham sinologiya bilan birga, bir joyda, bir vaqtda rivojlanib borib, arabshunoslar, eronshunoslar va turkshunoslar Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda salmoqli hissa qo'shishdi.

XIX-asr oxiri – XX-asr boshlarida yevropaliklarning Sharqni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari, mustamlakachilik siyosati va G'arb olamiga yot bo'lgan boshqa elementlarni aniqlash va o'rganib borish natijalari "Revue du Monde Musulman" jurnalida nashr etila boshlandi. Ushbu jurnal Parijda 1906-1926 yillarda nashr etilib, 66 tomdan iborat edi. Uning ijodkorlarining (A.Leshatele, A.Korde, O.Uda, A.Vasser va boshq) fikricha ushbu nashr Atlantikadan Hind okeanigacha bo'lgan musulmonlar hayotining barcha tomonlarini qamrab olishi zarur edi.

Ular orasida Turkistonlik musulmonlarning ham iqtisodiyoti, madaniy va ma'naviy hayoti haqidagi obzorlar, asr boshidagi siyosiy va mafkuraviy o'zgarishlar panislomizm va panturkizm

g'oyalarining ta'siri, Rossiyaning mintaqadagi siyosati, ta'lim tizimi, islomning o'rni haqida ko'plab maqolalar mavjud edi.

Ushbu davr fransuz sharqshunosligining yana bir yirik vakili arabshunos Lui Massinon (1883-1962) bo'lib, islomshunos mutaxassis sifatida fan tarixiga kirdi. Uning islom tematikasiga qiziqishlari Yaqin Sharq va shimoliy afrikaga qilgan sayohatlari natijasida paydo bo'ldi. U "Yejegodnik musulmanskogo mira" (1955) va "Abstracta Islamica" kabi davriy nashrlarga asos solgan.

Shunday qilib, ko'rib o'tilayotgan davrda Turkiston haqidagi syujetlar fransuz sharqshunosligida alohida o'rin egalladi. Ammo, mintaqa tarixi va madaniyatini tilshunoslik va manbashunoslik kabi fanlarning yordamisiz tasavvur qilish, fundamental tadqiqotlar olib borishning imkoni yo'q edi. XX-asr boshlarida Orenburgda fransuz tilidan dars bergan Jozef Kastanening o'z vataniga qaytishi fransuz sharqshunosligining keyingi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. J.Kastane o'zining etnografik, arxeologik va tarixiy asarlari bilan keng tanildi. Inqilob va fuqarolar urushi yillarida u Markaziy Osiyoda bo'lib, qizg'in voqealarning guvohi bo'lgan edi. Bu jarayonlarni u keyinchalik "Revue du Monde Musulman" jurnalida "Bolshevizm va islom" deb nomlangan holda turkum maqolalar sifatida e'lon qildi.

Havaskor-arxeolog J. Kastanening kolleksiya to'plashi ham e'tiborni tortadi. M. Ye. Masson uni shunchaki havaskor emas, balki "O'rta Osiyoning qadimgi obidalari tarixidan mutlaqo bexabar" deb ta'riflagan. U ko'p yillar o'lka bo'ylab sayohat qilar ekan, muayyan vaqt mobaynida yodgorliklarni muhofaza qilish, muzey va kutubxonalar bilan bog'liq turli xizmatlarda ishlagan, katta miqdordagi arxeologik topilmalarni to'plagan. Kastane 1920-yilda sovet ma'murlari tomonidan razvedka ishi olib borishda shubha ostiga olinganligi bois mamlakatni tark etib, Fransiyaga jo'nab ketgan. U o'zi to'plagan buyumlarning bir qismini Ermitajga, 500 ta buyumni Turkiston muzeyiga topshirgan. Ko'pgina olimlar, shu jumladan, M. Ye. Masson va G. N. Chabrovning guvohlik berishlaricha, Kastane o'z kolleksiyasining eng katta va eng yaxshi qismini Parijga olib ketgan.

Ba'zi jurnallar vaqtli matbuot vazifasini bajarib, ilm ahlini yetarli darajada Markaziy Osiyodagi ma'lumotlar bilan tanishtirib borgan. Keyinchalik esa ushbu nashrlar umumlashtirilib, kitob yoki monografiya holatiga keltirilgan (masalan, L.Buva "Mo'g'ullar imperiyasi (ikkinchi faza)" ning davomi keyinroq boshqa bir talantli sharqshunos – Lyusen Buva tomonidan nashr etildi. Buva o'zining mazkur ishlari asosiga ilgari "Journal Asiatique" sahifalarida nashr etilgan, Amir Temur davlatini iker-chikirlarigacha o'rgangan "Temuriylar sivilizatsiyasi haqida esse" nomli tadqiqotini shakllantirdi.

Fransuz ilmiy markazlarining faoliyatini yoritishda gazeta va jurnallarning roli nihoyatda kattadir. Mazkur markazlarda nashr etiladigan jurnallar fundamental va amaliy tadqiqotlarning natijalarini eʼlon qilib, soha boʻyicha birlamchi manba sanaladi. Ushbu jurnallarga qoʻshimcha ravishda, ilmiy markazlar xodimlarining monografiyalari yoki ularning ayrim qismlari, ayrim holatlarda yangi chiqqan kitoblarga sharhlar ham keltirilgan.

Bugungi kunda mahalliy kutubxonalarimizda saqlanib kelinayotgan nodir nashrlar hamda davriy matbuot nashrlari ham xorijiy tarixshunoslik uchun keng ahamiyatga ega boʻlib, manbaviy asos sifatida xizmat qiladi. Ular maʼlumotlarni qiyosiy tahlil asosida oʻrganishda qulay imkoniyat yaratadi.

1867 - 1917 yillardagi mahalliy va xorijiy nashrlar yigʻilib, bibliograf V.I.Mejov tomonidan 594 jilddan iborat toʻplam holiga keltirilgan “Turkiston toʻplami” ham fransuz tarixshunosligi uchun qimmatli manbadir. Ushbu toʻplamdan oʻrin olgan qator matnlar mazkur davr haqida maʼlumot beruvchi birlamchi manbalar qatoriga kiradi. “Turkiston toʻplami”ning ilmiy ahamiyati shundaki, oʻsha davrda fransuz tilida nashr etilgan “Revue des deux Monde”, “Revue de France”, “Revue contemporaine”, “Revue de Geographie”, “Bulletin de la Société de Geographie”, “Annales des voyages”, “Le correspondant”, “Le Nord” kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar va turli ekspeditsiyalar hisobotlarining asl matnlari uning sahifalaridan oʻrin olgan” .

Bundan tashqari Turkistonga tashrif buyurgan sayyoh va ilmiy ekspeditsiya olib borgan tadqiqotchilarning faoliyati toʻgʻrisidagi batafsil maʼlumotlar rus olimlari tomonidan “Turkestanskie vedomosti” gazetasida 1870-1917 yillar davomida muntazam ravishda yoritib borilgan .

Mazkur jurnallarda nafaqat sobiq Ittifoq va Yevropa, balki butun dunyo miqyosida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy masalalar muhokama qilingan, siyosiy tizim, hukumat va boshqaruv usullari, ichki va tashqi savdo, xalqaro munosabatlar, maorif va madaniy meros kabi ijtimoiy muammolarni oʻz ichiga olgan maqolalar eʼlon qilingan.

Fransiyada boshqa mamlakatlardan farqli ravishda Markaziy Osiyoga oid maʼlumotlarni doimiy chop etadigan maxsus jurnallar ham mavjud edi. Masalan, Cahiers d'Asie Centrale (Markaziy Osiyo daftarlari) jurnali shular jumlasidan boʻlib, Oʻzbekiston moddiy madaniyati tarixini oʻrganishda oʻziga xos ahamiyatga ega.

Cahiers d'Asie Centrale Markaziy Osiyoni tadqiq qilish fransuz instituti (Institut français d'études sur l'Asie centrale - IFEAC)ning rasmiy nashri boʻlib, uning har bir soni alohida mavzularga bagʻishlanadi. Institut faoliyati uch yoʻnalishda tadqiqotlar olib borib, asosiy ilmiy natijalar mazkur nashrda eʼlon qilinadi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Fransuz va Yevropa tadqiqotchilari tomonidan regionlarni tadqiq qilish;
2. Mahalliy tadqiqotchilarni ijtimoiy fanlarning yangi tarmoqlarini o'rganishiga yordam berish;
3. Fransiya haqidagi tasavvurlarni nafaqat shu mintaqada balki ushbu mintaqaga qiziquvchi xorijiy ilmiy doiralar o'rtasida ham keng targ'ib qilish.

Institut olib borayotgan tadqiqot ishlari asosan fanning ijtimoiy fanlar, tarix, etnologiya, adabiyot, tilshunoslik, arxeologiya va boshqa sohalarini o'z ichiga oladi.

Institutning asosiy vazifasi Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati haqidagi ma'lumotlarni nafaqat Fransiya, balki boshqa Yevropa davlatlariga ham yoyishda alohida o'rin tutgan. Institut chet el tadqiqotchilariga ham katta imkoniyatlar yaratib, ularga kutubxona, texnik va kompyuter xizmatlarini ko'rsatib turadi. Shu bilan birgalikda, institut IFEAC dasturlari doirasida va ular bilan parallel loyihalarda ishlayotgan Yevropa va mahaliy tadqiqotchilar uchun ilmiy axborot va tajriba almashish markazi vazifasini bajargan.

IFEAC nashrlari 1996 yildan beri chop etilmoqda. Uning moddiy madaniyat tarixiga oid quyidagi sonlari tadqiqotchilar uchun katta ma'lumotlar bazasini ochib beradi:

- Hindiston va Markaziy Osiyo: savdo va g'oyalari yo'llari (Inde-Asie centrale : routes du commerce et des idées) (№ 1-2, 1996; mas'ul muharrir T. Zarcone).

- Temuriylar merosi: Eron, Markaziy Osiyo va Hindiston (XV-XVIII asrlar) (L'héritage Timouride : Iran - Asie centrale - Inde, XVe-XVIIIe siècles) (№ 3-4, 1997; mas'ul muharrir M. Szuppe).

- Buxoroyi Sharif (Boukhara la Noble) (№ 5-6, 1998; mas'ul muharrir M. Szuppe).

- Islomiy Markaziy Osiyoning qo'lyozma merosi va intellektual hayoti (Patrimoine manuscrit et vie intellectuelle de l'Asie centrale islamique) (№ 7, 1999; mas'ul muharrirlar A. Muminov, F. Richard va M. Szuppe).

- Markaziy Osiyoda xotira va uning tayanchlari (La mémoire et ses supports en Asie centrale) (№ 8, 2000; mas'ul muharrir V. Fourniau).

- Qoraxoniylar tadqiqotlari (Études karakhanides) (№ 9, 2001; mas'ul muharrir V. Fourniau).

- Qoraqalpoqlar va Orolning boshqa xalqlari: sohillar va cho'llar oralig'ida (Karakalpaks et autres gens de l'Aral : entre rivages et déserts) (№ 10, 2002; mas'ul muharrir S. Jacquesson).

- Fransuz arxeologiyasi Markaziy Osiyoda: yangi tadqiqotlar va ijtimoiy-madaniy muammolar (Archéologie française en Asie centrale. Nouvelles recherches et enjeux socioculturels) (№ 21-22, 2013; mas'ul muharrir J. Bendezu-Sarmiento).

Quyida uning Markaziy Osiyodagi eng dolzarb mavzularidan biri “Qoraxoniylar davri”ga bag‘ishlangan sonidan ayrim mulohazalar keltiriladi .

O‘rta asrlar davrining eng kam o‘rganilgan va ma‘lumot yozib qoldirilgan davrlaridan biri bu Qoraxoniylar sulolasi (X–XIII-asrlar) hukmronligi yillari bo‘lib, ushbu davr Markaziy Osiyo tarixida o‘ziga xos ahamiyatga egadir. Shu sababli, Cahiers d'Asie Centrale jurnalining alohida soni siyosiy va madaniy murakkablik davrida noyob hodisa hisoblangan rivojlanish darajasiga erishgan ushbu sulola tarixiga bag‘ishlanadi . To‘plamda bir-biriga to‘liq bog‘liq bo‘lmagan tarixiy hodisalar majmuini tasvirlash uchun hatto “Qoraxoniylar davri” yoki “Qoraxoniylar Markaziy Osiyosi” termini qo‘llanilgan.

G‘arbda Qoraxoniylar davlatiga oid bir qancha yirik asarlar nashr etilgani, g‘arblik yosh tadqiqotchilar orasida qoraxoniylarga qiziqish yana kuchayganligi , sobiq ittifoq tarixchilari yoki arxeologlari tomonidan bu sohada faol ish olib borilganligi va xitoylik mutaxassislarning bunga qiziqishi ortib borayotgani haqida mazkur jild sahifalarida o‘qish mumkin.

Shunday qilib, qoraxoniylar evolyusiyasi fransuz tadqiqotlarida shubhasiz, burilish nuqtasi deb tan olinadi. Shuningdek, Markaziy Osiyo tarixidagi birinchi turkiy-musulmon sulolasi, turkiy yoki turkiy-musulmon sulolalarining mutlaq ko‘pchiligi tashkil etganligi hamda ular Somoniylarning davomchilari ekanligi alohida ta’kidlanadi.

Qoraxoniylar sulolasi davlat tuzilmalarining kuchsizlangan davrida ham Transoksiyani Yaqin Sharq va hatto O‘rta yer dengizi bilan bog‘lagan imtiyozli bosqichni ifodalaydi. Darhaqiqat, bu davrda aynan saljuqiylar O‘rta Osiyodan kelib chiqqan turkiy-musulmon davlatiga aylandilar. Shunday qilib, Qoraxoniylar davri, xususan, o‘zi keltirib chiqargan turkiylashuv jarayonlari bilan ajralib turadi. Bu esa o‘z navbatida qoraxoniylarga alohida qiziqish uyg‘otib, Markaziy Osiyoda tarixining “jahon sivilizatsiyasining buyuk markazlari” bilan, Yaqin Sharq va Sharqning “buyuk markazlari” bilan aloqalari tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘rib turganimizdek, qoraxoniylar davrini o‘rganish ulkan muammoning bir qismidir. Chunki so‘nggi 20-30 yil ichida qoraxoniylarga oid asosiy yangi nashrlar rus tilida, kam hajmda chop etilgan. 1995-yilda Yuriy Bregel rahbarligida Blumingtonda uch jildda nashr etilgan “Markaziy Osiyo islom bibliografiyasi” keltirilgan bibliografik ma‘lumotlarni behuda takrorlamaslik uchun quyidagi tamoyildan foydalanilgan, ya’ni “Qoraxoniylar bibliografiyasiga qo‘shimchalar”da tuzuvchi va to‘plovchi Ulug‘bek Mansurov tomonidan faqat Y. Bregelga tegishli bo‘lmagan nomlar kiritilib, ularning fransuz tilidagi tarjimasini ham berilgan . Maqolalar oxirida mualliflar tomonidan taqdim etilgan bibliografiya saqlab qolingan.

O‘rta asrlarda din asosiy mafkura hisoblanib, bu davrda ham qisman diniy bag‘rikenlik belgilarini kuzatish mumkin. Masalan, O‘rta Osiyodagi lyuteran jamoalari haqidagi tadqiqotlar

zamonaviy Markaziy Osiyo mamlakatlari, ya'ni nasroniy cherkovlari va jamoalarining ijtimoiy holati o'ziga xos tarzda yoritib berilgan. Ularni arxeologik jihatdan qazib o'rganish esa moddiy madaniyat tarixining predmeti hisoblanadi. Va nihoyat, ushbu jild mintaqadagi fransuz arxeologik qazishmalarining faoliyati va topilgan ashyolarni tavsiflovchi eslatmalar, hujjatlarni ham qamrab olgan. Fransuz- sovet arxeologlari o'rtasidagi hamkorlik, xususan, J.-C. Gardin (J.-C. Gardin) va 1982 yilda Dushanbeda bo'lib o'tgan birinchi konferensiyadan beri samarali natijalarga erishilganligi qayd etilgan.

Cahiers d'Asie centrale nashri sahifalarida Markaziy Osiyo tarixining qadimgi davrlaridan tortib zamonaviy bosqichlarigacha bo'lgan jarayonlar arxeologiya, tarix, antropologiya, etnologiya, dinshunoslik, siyosatshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan yoritiladi. Jurnalning asosiy xususiyati mintaqani alohida davlatlar kesimida emas, balki yagona tarixiy-madaniy makon sifatida o'rganishga intilishida namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jurnal sahifalarida O'zbekiston moddiy madaniyatiga oid, xususan, Afrosiyob, Varaxsha, Buxoro vohasi, Qofirqal'a, Jarqo'ton, Oyoqog'itma va boshqa yodgorliklarga bag'ishlangan maqolalar fransuz markaziyosiyoshunosligining asosiy ilmiy yo'nalishlarini aks ettiradi. Ushbu tadqiqotlarda moddiy madaniyat obyektlari nafaqat arxeologik topilma, balki tarixiy xotira, madaniy transfer, diniy jarayonlar va sivilizatsiyalararo aloqalarning manbasi sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan Cahiers d'Asie centrale zamonaviy fransuz tarixshunosligida O'zbekiston moddiy madaniyati tarixini o'rganishning nazariy, metodologik va institutsional asoslarini aks ettiruvchi yetakchi ilmiy nashrlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda fransuz tarixshunosligiga oid manbaviy asoslarda tizimida davriy nashrlarning o'rni beqiyos.

Bu turdagi matnlarni ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar tashkil etib, ular asosan hajmi kichikligi bilan xarakterlanadi. Mazkur maqolalar ilmiy tadqiqotlarning muayyan bir sohasiga bag'ishlangan bo'lib, bir tadqiqot bir necha sohalarga (etnografiya, tarix, mineralogiya, geologiya, flora-fauna) bo'lingan holda, kichik-kichik hajmda, o'sha davrning eng yirik va ko'zga ko'ringan davriy matbuot sahifalarida chop etilgan. Ular qatoriga "Revue des deux Monde", "La Gazette géographique", "Exploration", "Revue du monde catholique", "Revue de France", "Revue des sciences naturelles appliquées", "Revue française de l'étranger" kabi nashrlarni kiritish mumkin. Bundan tashqari turli ilmiy jamiyatlarning "Bulletin de la Société de Géographie de Lion", "Bulletin de la réunion des officiers", "Bulletin de la Société de Géographie de Paris", "Annales agronomiques", Cahiers d'Asie Centrale kabi maxsus nashr organlarida ham chop etilgan. Bunday matnlarning manba sifatidagi ustun tomonlari shundaki, hali tadqiqot to'liq yakunlamasdan, ilmiy va ommaviy jamoatchilik ilmiy yangiliklar bilan tanishtirib borilgan. Yevropalik tadqiqotchi

va sayyohlar Sharq dunyosining o'ziga xos ekzotik xususiyatlarini, ular uchun ochilgan yangi qirralarni, o'zlarining tasavvurlaridan farq qiladigan Sharq dunyosining xususiyatlarini ana shu maqolalarida aks ettirgan edi. Tadqiqotlar yakunida ana shu maqolalar jamlanmasidan asarlar yaratilganda, maqolalardagi dagi mana shu o'ziga xos elementar xususiyatlar, jamoatchilik uchun tushunarli bo'lgan ilmiy-ommabop fikrlar olib tashlanib, sof ilmiy qarashlar asarlarda o'z ifodasini topgan.

Ta'kidlash joizki, bu ilmiy jamoatchilik uchun manbaviy asoslarni kengaytirish yo'llaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu tarzda orientalistlar Sharqni o'rganishning yangi-yangi metodologiyasini ishlab chiqar edilar. Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, Yevropa olamida Sharq haqidagi bilimlarga zaruriyat tug'ilganligi va ehtiyojning kundan-kunga ortib borishi intellektual meros turining kengayib borishiga olib keldi.

Ahamiyatli tomoni shundan iboratki, Turkiston tarixi haqida keng ma'lumot beruvchi yuqorida keltirilgan tadqiqotlar respublikamizda fransuz tarixshunosligi va manbashunosligi doirasida chuqur o'rganilib tahlil etilmagan. Manbalardan yetarlicha foydalanish, turli xorijiy nashrlarni o'rganish imkoni yaratilgan mustaqillik yillarida erkin fikr yuritish va ijod qilish sharoiti xorijiy tarixshunoslik va manbashunoslik bo'yicha yirik tadqiqotlar olib borishga keng imkon yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Richard N. Frye. *The Heritage of Central Asia*. Princeton University Press, 1996.
2. Mantellini S. *Settlement Dynamics, Territory Exploitation and Trade Routes in the Ancient Samarkand Oasis (Uzbekistan)*. 2014.
3. Mantellini S., Berdimuradov A.E. *Archaeological Explorations in the Sogdian Fortress of Kafir Kala (Samarkand Region, Republic of Uzbekistan)*. 2005.; Mantellini S., Rondelli B., Stride S. *Analytical Approach for Representing the Water Landscape Evolution in Samarkand Oasis (Uzbekistan)*. 2008/2011.
4. Boris Marshak. *Legends, Tales and Fables in the Art of Sogdiana*. Moscow, 2002.
5. Grenet F. *Maracanda/Samarkand, une métropole pré-mongole. Sources écrites et archéologie // Annales. Histoire, Sciences Sociales*. 2004. Vol. 59. No. 5–6. P. 1043–1067.; Grenet F., Rapin C. *De la Samarkand antique à la Samarkand médiévale: continuités et ruptures*. Cairo, 1998.; *Fouilles de Samarkand et de Sogdiane. Travaux de la Mission Archéologique Franco-Ouzbèke à Afrasiab, 1989–2007*; Francfort H.-P.

L'âge du bronze en Asie centrale. La civilisation de l'Oxus // Anthropology of the Middle East. 2009. Vol. 4, No. 1. P. 91–111.

6. Bendezu-Sarmiento J. Recherches archéologiques franco-ouzbèkes sur l'âge du Bronze en Bactriane septentrionale // Mission Archéologique Franco-Ouzbèke. Paris–Tachkent, 2000–2015.
7. Boucharlat R. Comptes rendus bibliographiques // Abstracta Iranica. Revue bibliographique pour le domaine irano-aryen. Paris–Téhéran. Muallif jurnalning doimiy sharhlovchilaridan biri sifatida Markaziy Osiyo va Eron arxeologiyasiga oid nashrlarni tahlil qilgan.
8. De La Vaissière É. Comptes rendus et notices bibliographiques // Abstracta Iranica. Revue bibliographique pour le domaine irano-aryen. Muallif So‘g‘d, Ipak yo‘li va Markaziy Osiyo tarixiga oid tadqiqotlar bo‘yicha muntazam sharhlar e‘lon qilgan. ; Grenet F. Comptes rendus bibliographiques // Abstracta Iranica. Revue bibliographique pour le domaine irano-aryen. Muallif So‘g‘d madaniyati, dinlar tarixi va Markaziy Osiyo arxeologiyasiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilgan.
9. Journal Asiatique. Paris: Société Asiatique rasmiy sahifasi. Jurnal 1822-yildan buyon nashr etilib kelayotgan Fransiyaning eng qadimgi sharqshunoslik nashrlaridan biri hisoblanadi.; Comptes rendus des séances de l'Académie des Inscriptions et Belles-Lettres (CRAI). Paris: Académie des Inscriptions et Belles-Lettres (CRAI) rasmiy sahifasi. CRAI AIBLning asosiy akademik nashri bo‘lib, 1857-yildan buyon chop etiladi. Studia Iranica. Paris–Leuven: Studia Iranica rasmiy sahifasi (Peeters Publishers). Jurnal 1972-yildan buyon eroniy dunyo, So‘g‘d, Baqtriya va Markaziy Osiyo tarixiga oid tadqiqotlarni e‘lon qilib keladi.; Arts Asiatiques. Paris: Arts Asiatiques rasmiy sahifasi (EFEO). Osiyo san‘ati va arxeologiyasiga bag‘ishlangan ushbu jurnal 1924-yildagi Revue des Arts Asiatiques an‘anasining davomchisi bo‘lib, 1962-yildan EFEO tomonidan nashr qilinadi.; Cahiers d'Asie centrale. Tachkent–Paris: Cahiers d'Asie centrale rasmiy sahifasi (OpenEdition). Institut Français d'Études sur l'Asie centrale (IFEAC)ning rasmiy ilmiy jurnali bo‘lib, Markaziy Osiyo bo‘yicha gumanitar va ijtimoiy fanlar tadqiqotlarini chop etadi.; Abstracta Iranica. Paris–Téhéran: Abstracta Iranica rasmiy sahifasi. Eroniy va Markaziy Osiyo tadqiqotlari bo‘yicha bibliografik sharhlar va ilmiy monitoringga ixtisoslashgan nashr.
10. (La) Russie dans la Presse Parisienne. 1848-1859. – Cahiers du Monde Russe et Soviétique. Vol. IX. No. 3-4, 1968, 386-436 p.
11. Горшенина С. Странний археолог Кастанье//Звезда Востока, 1996, N6 3. С. 156.
12. Bouvat L. L'empire mongol (2-me phase). Paris. 1927.
13. Туркестанский сборник. – СПб.: Т. 8, 31, 35, 40, 41, 81, 102, 111, 134, 144, 217.

14. Excursion scientifique dans le Kohistan. Lettre de M.Ch. de Ujfalvy au ministre de l'instruction publique. Bulletin de la Société de Géographie. 1877, juillet. P. 89-99. // Туркестанский сборник. Т.294.; Excursion scientifique dans le Ferghana. – Nouvelle du colonel Prjevalski. Lettre de M.Ch. de Ujfalvy au secrétaire générale. Bulletin de la Société de Géographie. 1877, Août. P. 190-193. // Туркестанский сборник. Т.238. ; Excursion en Dzoungarie par le M.Ch. de Ujfalvy. Lettre au secrétaire générale. Bulletin de la Société de Géographie. 1877, Decembre. P. 638-642. // Туркестанский сборник. Т.238.
15. Туркестанские ведомости. 1870-1917.
16. Французский путешественник (Член Парижского географического общества m.Paul Labbé) //Туркестанские ведомости. 1897, 5 (17) октября, №72 (№1597), -297 стр; Отдел неофициальный (Подробности о похоронах французского путешественника Мартена) //Туркестанские ведомости. 1892, 2 июня, №22, - 87 стр; Известия и заметки (О выслушивание в Парижском географическом обществе о пребывание в Средней Азии Эмиля Дюрана) //Туркестанские ведомости. 1891, 22 октября, №43, - 171 стр; Выписка из письма французского путешественника Дютрей де Рень (Dutreuil de Rhins) на имя господина главного начальника края //Туркестанские ведомости. 1893, 3 (15) января, №1, - 2 стр; Научная поездка француза по Средней Азии //Туркестанские ведомости. 1907, 4 август, №124, - 192 стр; Приезд иностранца (Приезд в Ташкент французского подданного Поля Верен-Декор) //Туркестанские ведомости. 1912, №261.
17. https://ifeac.hypotheses.org/?utm_source=
18. Études karakhanides. Vincent Fourniau, « Avant-propos », Cahiers d'Asie centrale, 9 | 2001, 9-11.
19. Études karakhanides // Cahiers d'Asie Centrale, 2001, №9. – 310 p.
20. Bilhan S., Les juristes hanafites de l'Asie centrale à l'époque des Qarakhanides. Thèse de doctorat de 3 e cycle, soutenue à l'Université de Droit et d'Economie et de Sciences Sociales de Paris (Paris II), Paris, 1973.
21. Bilhan S., “Buğrâ Hân Tamgâç Medresesi Vakif Belgesi [Les documents de vaqf du madrassa de Bughrâ khân Tamghâch]”, Ankara Universitesi Eğitim Fakultesi Dergisi [Revue de la Faculté d'Éducation de l'Université d'Ankara], n 15, 1982, pp. 117-124.
22. Kervran M., “L'architecture islamique de la conquête arabe aux mongols”, dans: Pierre Chuvin, Les Arts de l'Asie centrale, Paris, Citadelle et Mazenod, 1999, pp. 329-358.
23. Lecomte O., Northedge A., “Urbanisme qarakhânide au Semirech'e: l'exemple d'Ornek”, dans : Recherches archéologiques au Kazakhstan. Mémoires de la Mission Archéologique française en Asie centrale, X, Paris: De Boccard, 1998, pp. 91-102.

24. Davidovich E. A., "The Karakhanids", dans: History of Civilisations of Central Asia, IV, Paris, 1998, pp. 119-143.
25. Vincent Fourniau, «Avant-propos», Cahiers d'Asie centrale, 9 | 2001, pp.9-10.
26. Bibliography of Islamic Central Asia éditée en trois volumes à Bloomington en 1995 sous la direction de Yuri Bregel
27. Ulugbek Mansurov, «Compléments pour une bibliographie karakhanide », Cahiers d'Asie centrale, 9 | 2001, 189-205.
28. Sébastien Peyrouse, « Pour une histoire des mouvements chrétiens en Asie centrale: le cas de l'Église luthérienne», Cahiers d'Asie centrale, 9 | 2001, 209-234.